

Xorazm viloyatida kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2024- yil uchun


- I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni
- II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rnlari soni
- III. Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
- IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari
- V. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
- VI. Sanoat
- VII. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- VIII. Qurilish
- IX. Xizmatlar
- X. Savdo faoliyati
- XI. Ovqatlanish bilan ta'minlash
- XII. Innovatsiya

I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni (2025- yilning 1- yanvar holatiga)

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 20 528 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo sohasida 7 597 ta (jamiga nisbatan 37,0 %) sanoat tarmoqlarida 3 339 ta (16,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 616 ta (12,7 %), qurilishda 1 381 ta (6,7 %), yashash va ovqatlanishda 1 519 ta (7,4 %) tashish va saqlashda 914 ta (4,4 %) qayd etilgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025- yilning 1- yanvar holatiga)





Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

2024- yilda Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 55 471 tani tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 52 318 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi Urganch shahri (15 722 ta), Urganch (7 244 ta), Xonqa tumanlari (4 195 ta), Xiva sh. (3 687 ta), Hazorasp (3 377 ta) va Shovot (3 363 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 13 295 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yilda o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 12 830 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayollar sonining eng ko'pi Urganch shahri (4 385 ta), Urganch (1 581 ta), Shovot tumanlari (1 037 ta), Xiva sh. (931 ta), Xonqa (828 ta) va Hazorasp (673 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024-yilda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi sanoatda (11 056 nafar), savdo (14 850 nafar), qurilishda (9 942 nafar), boshqa turdag'i xizmatlar (5 526 nafar), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (4 661 nafar) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 643 nafar) ga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Xorazm viloyati bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 1 203,2 mlrd so'mni tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: 2023- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 954,6 mlrd so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Urganch shahri 401,8 mlrd so'm, Urganch tumani 154,0 mlrd so'm, Xiva sh. 91,9 mlrd so'm, Xonqa 80,3 mlrd so'm, Shovot 67,8 mlrd so'm, Tuproqqa'l'a 67,8 mlrd so'm va Hazorasp 61,8 mlrd so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

Xorazm viloyati bo'yicha 2024- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 254,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 203,2 mlrd so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Urganch shahri 88,9 mlrd so'm, Urganch tumani 32,2 mlrd so'm, Xiva sh. 22,1 mlrd so'm, Shovot 18,6 mlrd so'm, Xonqa 16,4 mlrd so'm, Tuproqqa'l'a 11,9 mlrd so'm, va Bog'ot 11,6 mlrd so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarning eng ko'p hajmi sanoatda (254,2 mlrd so'm), savdo (277,9 mlrd so'm), boshqa turdag'i xizmatlar (129,5 mlrd so'm), qurilishda (253,5 mlrd so'm), yashash va ovqatlanish (92,6 mlrd so'm) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (70,3 mlrd so'm) ga to'g'ri kelgan.



II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rirlari soni

2024- yil hisobot yilida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rirlari soni 18 215 tani tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha yangi ochilgan ish o'rirlari sonining eng ko'pi Urganch shahri (3 969 ta), Urganch (2 127 ta), Yangiariq tumanlari (1 610 ta), Xiva sh. (1 418 ta), Xiva (1 406 ta), Shovot (1 352 ta) va Gurlan (1 111 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 70 923 kishini tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: 2023- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 70 645 kishini tashkil etgan.

Tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 2024- yilda 222 kishi.

Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 363 kishini tashkil etgan.

Fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 574 kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 822 kishini tashkil etgan.

[Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni \(birlikda\)](#)

	Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda		Ulushi, % da
	2023- yil.	2024- yil.	
Xorazm viloyati	2 363	2 673	100,0
Urganch sh.	551	573	21,4
Xiva sh.	199	205	7,7
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	169	176	6,6
Gurlan	111	127	4,8
Qo'shko'pir	71	87	3,3
Urganch	228	264	9,9
Hazorasp	129	167	6,2
Tuproqqa'l'a	68	76	2,8
Xonqa	118	132	4,9
Xiva	116	131	4,9
Shovot	232	296	11,1
Yangiariq	179	217	8,1
Yangibozor	192	222	8,3



2024- yilda Xorazm viloyati bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 673 tani tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 310 taga ko'pi demakdir. Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning, jami faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi ulushi 12,9 % ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi Urganch shahri – 573 ta (21,4 %), Shovot tumani – 296 ta (11,1 %), Urganch tumani – 264 ta (9,9 %), Yangibozor tumani – 222 ta (8,3 %) va Yangiariq tumani – 217 ta (8,1 %) to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 5 457 kishini tashkil qildi. Mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 103,7 mlrd so'mga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

O'lchov birligi	2023- yil	2024- yil	
O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni	kishi	4 272	5 457
Mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	mlrd so'm	63,5	103,7
Hisobot yili oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan xodimlar soni shu jumladan oliy ma'lumotli	kishi	5717	7 036
Hisobot yilida yangi ochilgan ish o'rnlari soni	birlik	1232	2 272
Hisobot yilida qisqartirilgan ish o'rnlari soni	birlik	435	925
Hisobot yilida mazkur korxonada mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni	kishi	5817	7 014
Tashqi o'rindoshlarning yillik o'rtacha soni	kishi	56	58
Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni	kishi	80	83

III.Umumiyl iqtisodiy ko'rsatkichlar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 23 751,9 mlrd so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasida 13 792,8 mlrd so'm (58,1 %), sanoat tarmoqlarida 2 991,6 mlrd so'm (12,6 %), qurilishda 3 722,9 mlrd so'm (15,7 %), boshqalar 637,7 mlrd so'm (2,7 %), axborot va aloqada 120,8 mlrd so'm (0,5 %), tashish va saqlashda 839,3 mlrd so'm (3,5 %), yashash va ovqatlanishda 607,8 mlrd so'm (2,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi 882,8 mlrd so'm (3,7 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 156,4 mlrd so'm (0,7 %)ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Urganch shahri (7 856,7 mlrd so'm),



Urganch (4 166,4 mlrd so'm), Xonqa (1 752,0 mlrd so'm), Xiva sh. (1 517,9 mlrd so'm) va Hazorasp (1 322,9 mlrd so'm) tunanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdori 862,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijani 225,3 mlrd so'mga ko'payishiga olib keldi.

Shuningdek, 2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 644,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan sof foydani 188,6 mlrd so'mga kamayishiga olib keldi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining eng ko'pi Urganch shahri (316,7 mlrd so'm), Urganch tumani (129,6 mlrd so'm), Xiva sh. (80,9 mlrd so'm), Xiva (50,4 mlrd so'm) va Hazorasp (50,0) tunanlariga to'g'ri kelgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasi – 429,0 mlrd so'm (49,8 %), qurilish – 152,0 mlrd so'm (17,6 %), sanoat – 144,2 mlrd so'm (16,7 %), boshqalar – 93,6 mlrd so'm (10,9 %), axborot va aloqada – 33,0 mlrd so'mni (3,8 %) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) va sof foydasi (zarar) miqdori (mlrd so'm)

	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)		Sof foyda (zarar)	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jami	636,8	862,1	455,5	644,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	-44,4	-61,1	-52,6	-73,1
Sanoat	43,8	144,2	20,6	110,7
Qurilish	116,6	152,0	92,7	125,4
Savdo	356,7	429,0	261,8	325,9
Tashish va saqlash	27,6	26,8	22,7	20,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	20,7	30,4	12,2	18,2
Axborot va aloqa	33,8	33,0	30,1	31,4
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18,3	14,2	16,5	11,3
Boshqa turdag'i xizmatlar	63,7	93,6	51,5	73,9

IV.Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

2025- yilning 1- yanvar holatiga kichik korxona va mikrofirmalarning debitor qarzdorligi 2 538,1 mlrd so'm, kreditor qarzdorligi 2 983,4 mlrd so'mga yetgan.

Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi 9 899,3 mlrd so'm, asosiy vositalarning eskirish summasi 1 999,7 mlrd so'mni tashkil etgan.



Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari mlrd so'mda

	2023- yil	2024- yil
Yil oxiriga debitorlik qarz	2 625,6	2 538,1
Yil oxiriga kreditorlik qarz	2 334,9	2 983,4
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	8 150,2	9 899,3
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	1 652,3	1 999,7
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati bo'yicha bahosi	53,4	33,7
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi summasi	9,7	6,8
Tugallanmagan qurilishlar (o'rnatilmagan uskunalarni qo'shgan holda)	1 207,8	2 340,4

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 1 357,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 245,9 mlrd so'mga ko'p demakdir. 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning ulushi jami sof tushumning 5,7 % ini tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Urganch shahri 450,1 mlrd so'm, Urganch 254,2 mlrd so'm, Shovot 167,7 mlrd so'm, Xiva sh. 108,9 mlrd so'm, Yangiariq 83,2 mlrd so'm, Xonqa 71,8 mlrd so'm, shuningdek, Qo'shko'pir 56,6 mlrd so'm viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum hajmi va jamidagi ulushi

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	1 357,1	100,0
Urganch sh.	450,1	33,2
Xiva sh.	108,9	8,0
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	49,3	3,6
Gurlan	14,6	1,1
Qo'shko'pir	56,6	4,2
Urganch	254,2	18,7
Hazorasp	27,9	2,1
Tuproqqal'a	8,8	0,6
Xonqa	71,8	5,3
Xiva	37,8	2,8
Shovot	167,7	12,4
Yangiariq	83,2	6,1
Yangibozor	26,2	1,9



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) miqdori 70,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 55,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

**Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari
(mlrd so'mda)**

	2023- yil	2024- yil
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum	1 111,2	1 357,1
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi	560,0	1149,0
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari)	44,8	70,7
Sof foyda (zarar (-))	32,6	55,4
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	330,1	760,9
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	57,6	76,7

V.Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3 571,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan investitsiyalarni 1 377,4 mlrd so'mga oshishini ta'minladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori va ulushining eng ko'pi, tashish va saqlashda 877,9 mlrd so'm (24,6 %), savdo 810,8 mlrd so'm (22,7 %), sanoat tarmoqlarida 607,9 mlrd so'm (17,0 %), qurilishda 501,8 mlrd so'm (14,1 %), boshqa turdag'i xizmatlarda 364,9 mlrd so'm (10,2 %), yashash va ovqatlanishda 203,5 mlrd so'm (5,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 153,7 mlrd so'm (4,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 46,4 mlrd so'm (1,3 %) va axborot va aloqada 4,5 mlrd so'm (0,1 %) ni tashkil etgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi (mlrd so'mda) .

	Hajmi, mlrd so'm
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	153,7
Sanoat	607,9
Qurilish	501,8
Savdo	810,8
Tashish va saqlash	877,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	203,5
Axborot va aloqa	4,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	46,4
Boshqa turdag'i xizmatlar	364,9



2024- yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yo'naliishlari bo'yicha taqsimlanishida, turar joylar 42,0 mlrd so'm, noturar joylar 751,2 mlrd so'm, inshoatlar 380,7 mlrd so'm, mashina uskunalar transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari qiymati 2 381,6 mlrd so'm va boshqa xarajatlar 15,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining eng ko'pi Urganch shahri (1481,2mlrd so'm), Xiva shahri (748,5 mlrd so'm), Yangiariq (289,7 mlrd so'm), Hazorasp (241,8 mlrd so'm), Xonqa (186,7 mlrd so'm) va Urganch (183,0 mlrd so'm) tumanlariga to'g'ri kelgan.

**Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi va yo'naliishlari bo'yicha taqsimlanishi
(2024- yilda, mlrd so'mda).**

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya	shu jumladan:				
		turar joylar	noturar joylar	Inshootlar	mashina uskunalar transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari qiymati	boshqa xarajatlar
Xorazm viloyati	3 571,4	42,0	751,2	380,7	2 381,6	15,9
Urganch sh.	1 481,2	9,8	371,2	25,7	1064,6	9,9
Xiva sh.	748,5	-	83,2	-	665,3	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	55,0	10,9	2,0	20,2	21,3	0,7
Gurlan	24,6	-	-	-	24,6	-
Qo'shko'pir	151,6	2,4	-	109,9	39,2	0,2
Urganch	183,0	-	13,1	77,1	92,8	0,1
Hazorasp	241,8	-	75,8	77,9	88,1	-
Tuproqql'a	39,8	1,5	10,0	1,0	26,3	0,9
Xonqa	186,7	0,3	4,8	62,3	119,3	
Xiva	32,7	12,9	2,2	-	16,9	0,7
Shovot	52,6	-	0,04	6,6	46,0	-
Yangiariq	289,7	4,2	128,4	-	156,1	1,0
Yangibozor	84,3	-	60,4	-	21,4	2,4



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi 41,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmiga nisbatan 7,6 mlrd so'mga ko'paydi.

Hududlar bo'yicha 2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi eng ko'pi, Urganch shahri 18,0 mlrd so'm, Shovot tumanida 9,1 mlrd so'm, Yangibozor tumanida 3,0 mlrd so'm va Urganch tumanida 2,0 mlrd so'mni tashkil etgan.

VI. Sanoat

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 3 144,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini 721,3 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi eng ko'pi, Urganch shahrida 1 045,7 mlrd so'm, Urganch 553,4 mlrd so'm, Xonqa 337,9 mlrd so'm, Tuproqqa'l'a 222,9 mlrd so'm, Yangibozor tumanlari 165,9 mlrd so'm, Xiva shahri 144,2 mlrd so'm, Shovot tumanida 161,9 mlrd so'mni tashkil etgan.

Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Rahbari ayol kishi bo'lgan	
	Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda		Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Xorazm viloyati	2 423,3	3 144,6	56,1	89,5
Urganch sh.	771,1	1045,7	16,0	15,5
Xiva sh.	90,2	144,2	5,2	3,3
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	149,2	88,6	0,5	1,7
Gurlan	56,1	75,9	1,3	0,9
Qo'shko'pir	97,7	120,8	2,4	0,1
Urganch	457,1	553,4	13,5	17,2
Hazorasp	60,0	95,6	1,0	1,1
Tuproqqa'l'a	252,3	222,9	0,7	0,1
Xonqa	189,7	337,9	6,0	5,1
Xiva	109,5	79,4	1,3	1,4
Shovot	71,6	161,9	3,1	36,9
Yangiariq	71,8	52,3	2,3	4,7
Yangibozor	47,1	165,9	2,8	1,3

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 89,5 mlrd so'mni tashkil etgan.



2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, jami kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining 2,8 % ini tashkil etdi. Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining eng katta ulushi Shovot tumani (36,9 mlrd so'm) ga to'g'ri keldi.

VII.Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat) lar hajmi 596,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi (2024- yilda).

	Hajmi, mlrd so'mda
Jami	596,4
O'rmonchilik va yog'och tayyorlash	2,5
Baliq ovlash va akvakultura	52,8
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish	541,1

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmining eng ko'pi Xonqa (123,2 mlrd so'm), Qo'shko'pir (85,7 mlrd so'm), Urganch (71,9 mlrd so'm), Xiva (57,0 mlrd so'm) va Yangiariq (44,5) tumanlariiga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 19,5 mlrd so'mni tashkil etgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatishda 18,7 mlrd so'm, baliq ovlash va akvakulturada 0,8 mlrd so'mni tashkil etgan.


VIII.Qurilish

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 536,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan qurilish ishlarini 691,4 mlrd so'mga oshishini ta'minladi.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 2 930,7 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 161,0 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 228,3 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 216,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi
(2024- yilda, mlrd so'm)



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (795,9 mlrd so'm), Urganch tumani (618,9 mlrd so'm), Xiva shahri (391,7 mlrd so'm), Xiva (356,3 mlrd so'm) va Gurlan (229,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmi(QQSsiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Shundan ayollar rahbarligidagi korxonalarda	
	Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi		Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Xorazm viloyati	2 845,5	3 536,9	49,7	115,4
Urganch sh.	556,3	795,9	7,1	8,6
Xiva sh.	299,0	391,7	0,8	1,2
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	101,1	73,6	13,1	26,3
Gurlan	113,3	229,2	0,2	0,4
Qo'shko'pir	154,3	181,4	-	-
Urganch	428,3	618,9	0,9	0,2
Hazorasp	179,9	217,5	-	0,8
Tuproqqal'a	34,4	32,0	-	-
Xonqa	179,0	142,6	1,5	0,5
Xiva	436,4	356,3	2,7	4,7
Shovot	130,1	199,0	19,3	34,3
Yangiariq	109,0	141,2	3,3	38,0
Yangibozor	124,5	157,6	0,8	0,2



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 115,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan bajarilgan qurilish ishlarini 65,7 mlrd so'mga oshganini ko'rsatadi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami qurilish ishlarining 3,3 % ini tashkil etdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda hududlar bo'yicha eng ko'p amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yangiariq (38,0 mlrd so'm), Shovot (34,3 mlrd so'm), Bog'ot tumanlari (26,3mlrd so'm), Urganch sh. (8,6 mlrd so'm) va Xiva (4,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 99,9 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 7,3 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 5,5 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 2,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

IX.Xizmatlar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 3 566,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023 - yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 1 014,4 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning eng ko'pi Urganch shahri (1 213,6 mlrd so'm), Urganch tumani (476,7 mlrd so'm), Xiva sh. (329,3 mlrd so'm), Xonqa (309,7 mlrd so'm), Hazorasp (257,1 mlrd so'm), Bog'ot (156,9 mlrd so'm) va Qo'shko'pir (136,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi (mlrd so'mda)

	Jami xizmat		Shundan: ayollar rahbarligida	
	2023- yil	2024- yil	2023-yil	2024-yil
Xorazm viloyati	2 551,6	3 566,0	214,8	284,4
Urganch sh.	913,6	1213,6	110,9	136,0
Xiva sh.	145,2	329,3	19,0	37,9
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	123,7	156,9	4,5	6,7
Gurlan	99,2	135,5	3,1	4,5
Qo'shko'pir	93,1	136,6	5,3	8,6
Urganch	339,4	467,7	20,7	34,0
Hazorasp	196,3	257,1	6,9	11,3
Tuproqqal'a	66,7	87,4	2,4	3,7
Xonqa	240,2	309,7	14,5	7,1
Xiva	91,3	121,1	4,6	6,6
Shovot	92,6	133,4	10,1	12,5
Yangiariq	97,2	129,4	7,4	9,9
Yangibozor	53,1	79,1	5,5	5,5



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 284,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 69,6 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami xizmatlar hajmining 8,0 % ini tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning eng ko'pi Urganch shahri (136,0 mlrd so'm), Xiva shahri (37,9 mlrd so'm), Urganch (34,0 mlrd so'm), Shovot (12,5 mlrd so'm), Hazorasp (11,3 mlrd so'm), Yangiariq (9,9 mlrd so'm) va Qo'shko'pir (8,6 mlrd so'm) viloyatlarida qayd etilgan.

X.Savdo faoliyati

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 8 489,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasini 2 193,7 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining eng katta ulushi Urganch shahrida (3 775,9 mlrd so'm) va Urganch tumanida (1 203,5 mlrd so'm) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd so'mda)**

	Ulgurji savdo		Chakana savdo	
	2023- yil.	2024- yil.	2023- yil.	2024- yil.
Xorazm viloyati	6 296,2	8 489,9	5 453,8	7 361,7
Urganch sh.	3 510,7	3 775,9	1 726,4	2 367,4
Xiva sh.	185,4	287,4	203,4	259,4
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	90,3	153,6	214,0	330,2
Gurlan	110,0	454,8	261,5	354,2
Qo'shko'pir	73,3	198,0	211,1	252,7
Urganch	1 030,2	1 203,5	1 121,8	1 444,2
Hazorasp	95,3	375,1	449,3	604,1
Tuproqqa'l'a	82,7	135,5	118,0	146,1
Xonqa	295,9	457,6	343,7	575,8
Xiva	325,5	342,9	254,5	339,6
Shovot	117,8	285,6	251,7	304,7
Yangiariq	252,1	433,6	149,6	195,8
Yangibozor	127,1	386,3	148,8	187,6



2024-yilda kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 7 361,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023-yilga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasini 1 907,9 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasining eng ko'pi Urganch shahri (2 367,4 mlrd so'm), Urganch (1 444,2 mlrd so'm), Hazorasp (604,1 mlrd so'm), Xonqa (575,8 mlrd so'm), Xiva (339,6 mlrd so'm), Gurlan (354,2 mlrd so'm), Bog'ot (330,2 mlrd so'm), tumanlarida qayd etilgan.

XI.Ovqatlanish bilan ta'minlash

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ovqatlanish bilan ta'minlash bo'yicha tovar aylanmasi hajmi 484,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasini 118,1 mlrd so'mga ko'payishiga olib keldi.

Hududlar bo'yicha ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasining eng ko'pi Urganch shahri (179,0 mlrd so'm), Urganch tumani (55,9 mlrd so'm), Xiva shahri (47,2 mlrd so'm), Xonqa (47,0 mlrd so'm), Shovot (34,0 mlrd so'm), Hazorasp (26,6 mlrd so'm) va Bog'ot (26,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

XII.Innovatsiya

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyar 137 tani tashkil etgan. Bunda 2023- yilga nisbatan innovatsiyalar soni 67 taga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar sonining eng ko'pi, sanoatda 58 ta, qurilish sohasida 26, savdo sohasida 20 ta, boshqa turdag'i xizmatlarda 9 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 9 ta va tashish va saqlashda 7 tani tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar (2024- yilda).

	Texnologik innovatsiya-lar, birlikda.	marketin g innovatsi -yalar, birlikda	tashkiliy innovatsi -yalar, birlikda	innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarg a xarajatlar, mlrd so'm
Jami	133	3	1	805,1	718,8
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4			3,4	1,2
Sanoat	56	2		383,9	95,3
Qurilish	26			220,7	65,5
Savdo	18	1	1	129,4	541,4
Tashish va saqlash	7			18,4	6,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9			22,3	1,7
Axborot va aloqa	1			2,0	3,8
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3			3,5	1,1
Boshqa turdag'i xizmatlar	9			21,5	2,5



Hududlar bo'yicha joriy etilgan innovatsiyalarning eng ko'pi Urganch shahri (26 ta), Yangibozor (20 ta), Bog'ot (17 ta), Urganch (14 ta), Xiva (13 ta), Hazorasp (10 ta) hamda Shovot (10 ta) tumanarida qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar (2024- yilda).

	Texnologik innovatsiyalar, birlikda.	marketing innovatsiyalari, birlikda	tashkiliy innovatsiyalar, birlikda	innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarga xaratjatlar, mlrd so'm
Xorazm viloyati	133	3	1	805,1	718,8
Urganch sh.	26			269,3	571,1
Xiva sh.	6			5,3	3,0
<i>tumanlar:</i>					
Bog'ot	17			14,8	3,3
Gurlan	4			17,9	1,6
Qo'shko'pir	3			17,9	1,9
Urganch	12	1	1	60,7	70,6
Hazorasp	10			22,9	7,7
Tuproqqa'l'a	3			2,6	19,8
Xonqa	7			14,8	13,9
Xiva	12	1		25,2	5,1
Shovot	10			27,4	3,0
Yangiariq	4			71,2	0,2
Yangibozor	19	1		255,2	17,5

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar 16 tani tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan innovatsiyalarni 8 taga oshganini ko'rsatdi. Shuningdek, texnologik innovatsiyalar 14 ta, tashkiliy innovatsiyalar 1 ta, marketing innovatsiyalar 1 tani tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Mikrofirma va kichik korxonalarining faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

1 kb (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning 2024-yil uchun hisoboti"ni mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan. Tarmoqlar kesimidagi ma'lumotlarni, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati asosida jamlangan ma'lumotlar bo'yicha tayyorlangan.

Mazkur ma'lumotlar tarkibiga yirik tijorat korxonalari, byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari va banklarning ko'rsatkichlari kiritilmagan.

Foydali havolalar

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati](#)



Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuvi statistikasi bo'limi

Ijrochi:
T. Xodjaniyazov
(62) 224-65-18

Manzil:
220100, Urganch sh., Al-
Xorazmiy ko'chasi, 93-uy
